



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI O'XSHASH VA TALAFFUZI BIR-BIRIGA YAQIN SO'ZLAR

Abdullahoshimova Shohsanamxon Hamdambek qizi

Farg'ona davlat universiteti Xorijiy til va adabiyoti fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **M.Qurbonova**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annonatsiya. Ushbu maqolada nemis va ingliz tilidagi o'xshash va talaffuzi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikki tilda bir-biriga o'xshash so'zlarning bor bo'lishiga sababi bu ikki til ham german tillari oilasiga kiradi. Quyida ikkala tildagi o'xshash so'zlar borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ingliz, nemis, german tillari, house, fish bank, o'xshash so'zlar, talaffuz, tovush, fisch.

Ma'lumki, hozirgi davrda xorijiy tillarni o'rganish ilm-fan va boshqa turli xil ishbilarmonlik sohalarida aloqalarni rivojlantirishda, mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Xususan, nemis va ingliz tillari ham hozirgi kunda keng tarqalgan va ko'p qo'llanadigan tillardan biridir. Shuningek, ingliz tili hozirgi davrda ijtimoiy til sifatida keng qo'llanib kelinmoqda. Ingliz va nemis tillari German tillari oilasiga mansub bo'lganligi bois, ulardagi ayrim so'zlarda va talaffuzida o'xshashliklar mavjud. Tilshunoslikda bir-biriga o'xshash shakl, ma'no va kelib chiqishi bir xil bo'lgan so'zlar **kognatlar** deyiladi, ular bir umumiy ajdod tildan tarqalgan hisoblanadi. Masalan, ingliz tilidagi **house**, ya'ni uy so'zi nemis tilida **haus** tarzda yoziladi. Bu ikki so'zning ildizi, kelib chiqishi – bir.

Ingliz tilidagi **fish**, ya'ni baliq so'zi nemis tilida **fisch** tarzda yoziladi, lekin talaffuzi ikkala tilda ham /fɪʃ/ tarzda talaffuz qilinadi (nemis tilida i tovushi yanada aniqroq talaffuz qilinadi). Shuningdek, ularni biz soxta do'stlar (false friends) tarzida yuritishimiz mumkin.

Identik kognatlar bu ikkala tilda ham bir ma'noni anglatadigan va bir xil yoziladigan so'zlarga nisbatan ishlatiladi. Masalan, **bank, radio, moment, hotel, park, finger, hand winter, gold, arm, hammer** va shu kabi so'zlardir.

Xususan, ikki tilda ham bir xil yoziladigan lekin ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar mavjud bo'lib, bu turdagi so'zlar tilshunoslikda interlingual shakldosh so'zlar deyiladi. Masalan, Ingliz tilida **gift** so'zi **sovg'a** degan ma'noni anglatadi, lekin nemis tilida esa **gift** so'zi **zahar** degan ma'noni anglatadi.

Shuningdek, **chef** so'zi ingliz tilida **oshpaz** ma'nosida qo'llansa, nemis tilida **boshliq** ma'nosida qo'llanadi.

Kind so'zi ingliz tilida **mehribon** ma'nosida, nemis tilida esa **bola** ma'nosida qo'llanadi. Ingliz tilidagi **rat**, ya'ni **kalamush** so'zi nemis tilida **maslahat** ma'nosini ifodalab keladi. **Fast** so'zi ingliz tilida tez ma'nosida qo'llansa, nemis tilida esa **deyarli** ma'nosida qo'llanadi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz hamda nemis tillari German tillari oilasiga mansubligi bois ayrim so'zlar ma'nosi, talaffuzi va imloda yozilishi bir biriga o'xshash hisoblanadi. Shuningdek, bu ikki tilni bir-biriga qiyoslash tarzida til o'rganish, jarayonini yanada oson va qiziqarli bo'lishiga sabab bo'ladi.

